



## ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING CHET TILLARINI O'RGANISHDAGI ASOSIY VAZIFALARI

**Xoldarova Madinaxon SHavkatjon qizi**

Samarqand Davlat Chet tillar instituti

madinaxoldarova517@gmail.com

**Annotatsiya:** Til-ijtimoiy hodisa hisoblanib, jamiyat va barcha millatlar o'rtaсидаги асосиyl a'loqa vositasini bajaradi. Prezidentimiz tomonidan chet tillarini o'zlashtirish sharoitlarini yaratib berish bo'yicha yangi qonunlar qabul qilinmoqda. Zamonaviy va innovatsion texnologiyalarning til o'rgatish va o'rganishdagi samarali usullari va asosiy ro'li haqida ma'lumotlar.

**Tayanch so'zlar:** Texnologik ko'nikmalar, zamonaviy texnik vositalari, 4 xil ta'lim metodi, audiovisual uslub, ongli qiyoslash uslubi

**Annotation:** Being a social phenomenon language is the main means of communication between society and nations. New laws on languages are being adopted by our President. Basic information about the useful methods of modern and innovation technologies in language teaching and learning is presented.

**Key words:** Technological skills, modern technical devices, four different methods, Audiovisual methods, Method of conscious comparison

**Аннотация:** Язык социальное явление и является основные законы об иностранных языках принимает наш Президент. Представлена информация об основных методах современных и инновационных технологиях изучения и преподавания языков.

**Ключевые слова:** технологические навыки, современные технологические задачи, 4 разных метода, аудиовизуальный метод, метод осознанного сравнения

**ASOSIY QISM:** Bugungi kunning asosiy talablaridan biri maktabgacha ta'lim yoshlari hamda jamiiki oliy, o'rta ta'lim muassasalarida chet tillarini mukammal o'zlashtirishni rivojlantirish. Har kuni axborot-kommunikatsya texnologiyalari ko'plab odamlar uchun ajralmas aloqa vositasiga aylanib kelmoqda, taxminan bir yarim milliard odam ya'ni sayyoramizning har to'rtinchchi aholisi AKT orqali ta'lim, kasbiy va shaxsiy muloqotda ishtiroy etadi. Bundan ma'lumki yangi axborot texnologiyalari inson ongini yetarlicha qamrab olgan va bu vositadan foydali ilmlar egallash mumkin. Birinchidan, kompyuter yordamida vaxtdan yutish va kerakli



ma'lumotlarni tez yuklash, vaziyatni taqlid qila olish qobiliyati, tizimli va tezlik bilan fikrlay olish. Ta'lim va tarbiya amaliyotida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning intellektual, ijodiy va axloqiy rivojlanishining asosiy shartidir. Zamonaviy AKT vositalari: shaxsiy kompyuter, printerlar, skanerlar, multimedia proyektorlar, interfaol doska o'quv jarayonlarini optimallashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratib uni amalga oshirishni sezilarli darajada osonlashtirib beradi.

Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalaniб o'rgatish va o'rganish eng samarador va qulay usullardan biridir. Bu jarayonda jumladan:

- kompyuter va televiedeniadan foydalanganda o'quvchi turli tillardagi video roliklarni, dialoglarni va kino hatto yosh bolalar multfilmlarni ko'rish orqali til o'zlashtira oladi;

- Ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va radio eshittirishlar, qiziqarli chet tillaridagi musiqalar tinglash orqali o'rganuvchi ongini rivojlantirish;

- CD playerlardan foydalanish mumkin lekin texnologiyasiz faqatgina shaxslar tomonidan har qanday vaxtda chet tillarini o'zlashtira olish mushkul.

Chet tillarini asosan butun jahon tillari tan olgan ingliz tilini to'rt yo'naliшhga bo'lib o'rgatish va o'rganish barcha oliy bo'limlar tomonidan samarali uslub sifatida qaralib kelinmoqda jumladan;

Eshitish ya'ni LISTENING mahoratni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan qanday foydalaniladi yani tinglab tushunish audio matnlarni tanlashda va yaratishda texnologiyaning ahamiyati katta negaki sifatli texnika yordamida aniq va ravshan chet tili talaffuzlarini eshita olish kerak

Gapirish ya'ni SPEAKING da ham zamonaviy texnologiyadan foydalanamiz tajriba va moslashuvchanlikni o'rganish uchun ijtimoiy tarmoqlardan masalan; IELTS talking time and easy English kabi tayyor ko'rsatuvlarni ko'rish mumkin

O'qish ya'ni READING mahoratini mustaqil rivojlantirish uchun youtube kabi ijtimoiy tarmiqlar va ilovalarda turli chet tili matnlarining talaffusi tarjimasi va savol javoblar to'plamlari mayjud

Yozish ya'ni WRITING mahoratida ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarning o'rni beqiyos chunki hohlagan millat vakillari bilan xat yozishlar orqali ham yozish ham gapirish skillarini o'zlashtira olamiz, qolaversa saytlarda professional o'qituvchilar tomonidan yuklangan writing namunalari bilan tanishib chiqish mumkin

AUDUIVISUAL usul o'rganishning yuqori intensivligini, shu jumladan san'iy muhitni yaratishda avtomatik tushunish ko'nikmalarini beradi. Nomidan ko'rinish



turibdiki bu usul o'quvchilarning og'zaki va tinglash yo'naliшlarida eng faol qo'l keladi

Zamonaviy dunyoda ongli-qiyoslash usuli eng keng tarqalgan, ushbu uslub doirasida talabalarining o'qish, matn mazmuni, shuningdek chet tilida gapirish va yozishni o'rgatish

Qobiliyatiga eng katta qiziqish uyg'otadi. Usul quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi;

- til hodisalarini o'zlashtirishdan habardorlik va qay darajada foydalanish
- mazmunning lingvistik shakli bilan bog'lanish
- nutq faoliyati va fonetik tovushlarni barcha turlarini o'zlashtira bilish

Ingliz tili o'qitishda yangi g'oyalalar yangi texnologiyalardan foydalanilsagina rivojlanish bosqichiga chiqsa bo'ladi. Mashg'ulotlar jarayonida ularga amal qilinsa, yaxshi samara berishi shubhasiz. Qo'shimcha o'qitish texnologiyalaridan foydalanishdan maqsad, ta'lim olayotgan talabalarни umumiy jahon g'oyalari bilan tanishtirish ularga ko'rsatish va qo'llashga yo'naltirish.

**XULOSA;** Umuman olganda til o'rganishda innovatsion texnologiyalarning o'rni vazifalari juda katta va yetarli darajada isbotini topib kelmoqda. Nafaqat o'z yurtimizda litsey, kollej va oliy ta'lim muassasalarida balki chet el bilim maskanida o'qish uchun ham foydali chunki chet elga bormasdan ham online zamonaviy platformalar orqali masofaviy ta'lim olish imkoniyatlari kundan kunga rivojlanib bormoqda. Birinchi prezidentimiz I.A.KARIMOV aytganidek; "Agar o'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi bo'lsak, uning avvalambor bo'lajak buyuk yozuvchilarini, buyuk shoirlarini, tarjimon sohasining mutahassislarini to'g'ri tarbiyalashimiz kerak". Shunday qilib chet tilini o'rganish hozrgi zamon talabi ekan. O'sib kelayotgan yosh avlodga til o'rganishning yangi usullari va sharoitlarini zamonaviy tarzda olib berish oliy ta'lim va pedagoglarning dolzarb masalasi ekan. Bu shuni anglatadiki har bir oliy o'rtalik maxsus ta'lim tashkilot honalarini zamonaviy texnik jihozlari bilan taminlash yurtimizning hamda pedagog boshliqlarining kechiktirib bo'lmas vazifasiga kirar ekan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bekmuratova U.B "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" Toshkent, 2012
2. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch 87-88 b, Ziyo.uz.Ta'lim.UZ
3. Zaripov R.A. O'zbek maktabalarida chet tili o'qitish metodlarining asosiy yo'naliшlari
4. [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz)